

O‘zbekiston Respublikasi ekologiya,
atrof-muhitni muhofaza qilish
va iqlim o‘zgarishi vazirining
2024-yil 24 sentabrdagi 380-
son buyrug‘iga
4-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim
o‘zgarishi vazirligi, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarilariga
aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan
xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish**

REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglament O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda – vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari)dagi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, shuningdek, xabarlarni qabul qilish, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek, Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari rahbariga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Reglament maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalilanildi:

ishonch telefoni – Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlariga telefon orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, tasniflash va tizimlashtirish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishini monitoring qilish imkonini beruvchi tizim;

murojaatchi – aloqa kanallari orqali vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlaridagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun murojaat qilgan har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, xodim;

manfaatlar to‘qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarilarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari

o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaviy xarakatlар – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatichiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

korrupsiyaga oid huquqbazarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlarni korrupsiyaviy jihatdan buzilishini bartaraf etish, vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan yuqori darajada kasbiy va axloqiy faoliyat olib borishlarini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar majmui;

korrupsiyaviy xavf-xatar – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

taalluqli xabar – vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari idagi korrupsiyaviy harakatlар va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan xabar;

xodim – vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida o‘zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo‘lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlari).

4. Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari korrupsiyaviy harakatlар haqida axborot berishga mo‘ljallangan aloqa kanallarining ishini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

konfedensiallik va xavfsizlik – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo‘lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish) ga haqqi yo‘q. Agar murojaatchi o‘z xabarini yuborganligi xaqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o‘z xohishiga ko‘ra, jumladan, ehtiyoitsizligi natijasida oshkor qilgan bo‘lsa, vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari uning oshkor bo‘lishiga javobgar bo‘lmaydi;

qonuniylik – vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, qayta ishlash va ko‘rib chiqish qat’iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

murojaatchining ta’qib qilinmasligi – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o‘z xohishiga ko‘ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari xodimi xabarning mazmunidan qat’i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

murojaatchi bilan majburiy tartibdagи qayta aloqa – agar xabar anonim bo‘lmasa, uni ko‘rib chiqish natijalari vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari tomonidan murojaatchiga yetkazilishi lozim;

ta’sir choralarini qo’llashning majburiyligi – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.

korrupsiyaga oid maslahat – murojaatchi, korrupsiyaviy qoidabuzarlikga yoki korrupsiyani anglatishi mumkin bo‘lgan vaziyatga duch kelganda nima qilish kerakligi to‘g’risida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi tomonidan maslahat olishi mumkin.

2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari

5. Taalluqli xabar quyidagi aloqa kanallaridan yuborilishi mumkin:
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>) orqali;

Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi orqali;

Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebookdagi rasmiy sahifasi (<https://www.facebook.com/> _____)) orqali;

Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining telegram boti

Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlariga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni mahofaza qiluvchi organlar orqali;

mazkur Reglamentda ko‘rsatilmagan boshqa aloqa kanallari.

6. Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari aloqa kanallari to‘g‘risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallariga joylashtiradi, shuningdek, xodimlarga davriy ravishda yuboriladigan elektron xatlar tarqatmalariga va o‘quv materiallariga kiritadi, vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettiradi.

3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taalluqli xabarlarni qabul qilish

7. Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – Ichki nazorat tuzilmasi) Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqishga mas’ul hisoblanadi.

8. Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining quyidagi aloqa kanallaridan kelib tushgan taalluqli xabarlar Vazirlar Mahkamasining “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 7-maydagi 341-sun Qaror talablarida nazarda tutilgan tartibda ro‘yxatga olinadi va rezolyusiya uchun vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari rahbariga chiqariladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali;

Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi orqali;

Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining telefon raqamlari orqali (ishonch va boshqa ish telefon raqamlari orqali);

Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlariga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali.

9. Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari va telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Ichki nazorat tuzilmasi mas’ul xodimi tayinlanadi.

Bunda, taalluqli xabar kelib tushganda Ichki nazorat tuzilmasi mas’ul xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma yo‘li bilan yoki telefon orqali bog‘lanib zarur axborotni aniqlashtiradi, xabarni Reestrda ro‘yxatga oladi va ma’lumotni vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari rahbariga kiritadi.

Ichki nazorat tuzilmasi mas’ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni dushmanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar navbatdagi ish kunida aniqlashtirish uchun saqlanadi.

10. Agar murojaatchi o‘z xabarini tasdiqlash uchun qo‘srimcha materiallarga, masalan, fotomateriallar, hujjatlar, audio va videoyoziuvlarga ega bo‘lsa, murojaatni qabul qilishga mas’ul xodim ularni taqdim etish bo‘yicha foydalilaniladigan aloqa kanallarini (telegram boti yoki elektron pochtasi)ni ko‘rsatadi va taqdim etiladigan ma’lumotni konfedensialligini bildiradi. Mazkur ma’lumotlar taalluqli xabarga ilova sifatida rasmiylashtiriladi.

11. Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari rahbari taalluqli xabarni tezkorlik bilan tahlil qilish va ko‘rib chiqish uchun vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining Ichki nazorat tuzilmasiga topshiriq tushiradi.

12. Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining Ichki nazorat tuzilmasi taalluqli xabarni olgandan keyin 1 (bir) soat ichida uni ilovaga muvofiq shaklda vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrda (keyingi o‘rinlarda – Reestr) ro‘yxatga olishi va ushbu Reglamentning 4-bobiga muvofiq ko‘rib chiqishi lozim.

13. Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlari murojaatchilarga xodim tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xarakatlar to‘g‘risida anonim xabarlar qoldirish imkoniyatini beradi.

Anonim xabar kelib tushgan taqdirda vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining ma’sul xodimi, imkon mavjud bo‘lgan taqdirda, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlariga kelib tushgan xabarga javob berish uchun murojaatchi bilan bog‘lana olmasliklari mumkinligi haqida ma’lum qilishi;

qo‘srimcha zarur ma’lumot olish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda xabarni to‘liq va har tomonlama o‘rgana olmasliklarini bildirishi;

murojaatchiga u bilan bog'lanish uchun anonim aloqa kanali tashkil qilishni taklif qiladi (shaxs ko'rsatilmagan elektron pochta manzili, Telegramdagi maxfiy chat va.b.);

Murojaatchi o'z arizasidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

13. Vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan olingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etishning sabab va sharoitlari ham tahlil qilinadi va kelgusida ularning oldini olish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi.

14. Olingan xabarlar bo'yicha barcha taalluqli materiallar, hujjatlar va ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) Murojaatlar bilan ishslash tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan muddatga, shu bilan birga 10 yildan kam bo'limgan muddatga saqlanishi kerak.

15. Taalluqli xabar Vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining hududiy va tarkibiy bo'linmalarga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas'ul xodimlar zudlik bilan yozma shaklda hududiy (tarkibiy) bo'linma rahbari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ulni (mayjud bo'lsa) kelib tushgan xabar to'g'risida xabardor qiladi, ular o'z navbatida ushbu xabarni Vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining markaziy apparatidagi Ichki nazorat tuzilmasiga yuboradi. Ichki nazorat tuzilmasi olingan xabarni 11-bobida bayon etilgan tartibga muvofiq ko'rib chiqadi.

16. Vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining hududiy va tarkibiy bo'linmalari o'zlarining Reestrini yuritadi.

4-bob. Korrupsiyaviy harakatlар haqidagi xabarlarni ko'rib chiqish

17. Ichki nazorat tuzilmasiga kelib tushgan barcha taalluqli xabarlar ushbu tuzilmaning mas'ul xodimlari yoki vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari rahbari topshirig'iga asosan boshqa bo'linmalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

18. Korrupsiyaviy xarakatlari to'g'risidagi xabarlarni ko'rib chiqish jarayoniga, harakatlari ustidan taalluqli xabar kelib tushgan yoki ko'rib chiqish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xodimlarni jalg qilish man etiladi.

19. Taalluqli xabar kelib tushganda Ichki nazorat tuzilmasi xodimi dastlabki tekshirish o'tkazib, uning taalluqlilagini tahlil qiladi, ya'ni xabarda ko'rsatilgan ma'lumotning vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari tizimiga taalluqli korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka va (yoki) manfaatlar to'qnashuviga tegishliligini tekshiradi.

Dastlabki tekshirish taalluqli xabar Ichki nazorat tuzilmasiga kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

20. Mazkur Reglamentning 19-bandida nazarda tutilgan dastlabki tekshirish natijalaridan qat'i nazar, bu haqdagi axborot Reestrغا kiritiladi.

21. Agar Ichki nazorat tuzilmasi xodimi xabar taalluqli emas degan xulosaga kelsa, bu xabar bir ish kuni ichida vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining tegishli tuzilmasiga bildirgi asosida o'tkazilishi lozim.

22. Agar xabarda korrupsiyaviy harakatlar va (yoki) manfaatlar to'qnashuvi haqida ma'lumot hamda xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, Ichki nazorat tuzilmasi xodimi ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

23. Taalluqli xabarlarni mazmunan ko'rib chiqish vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlariga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oy ichida, tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari, vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarining rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga (anonim murojaatlardan tashqari) xabar qilinadi.

24. Murojaatga javob Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan tayyorlanib, vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari rahbari imzosi bilan rasmiylashtiriladi.

25. Taalluqli xabarlarni ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra o'rganish natijalari va qo'llanilgan ta'sir choralarini ko'rsatilgan javob xati tayyorlanadi va belgilangan tartibda murojaatchiga yuboriladi.

26. Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar va telegram-bot orqali kelib tushgan taalluqli xabarga javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va sahifalar yoki telegram-bot orqali yuboriladi.

5-bob. Hisobdorlik

27. Reestr dan Ichki nazorat tuzilmasi xodimlari, xabarlarni ko'rib chiqishda ishtirok etgan tegishli boshqa davlat organlari va vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarilarining xodimlari (faqat shunday xabarlargaga doir), vazirlik,

uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari rahbari yoki rahbarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishini nazorat qiluvchi o'rinnbosari foydalanishi mumkin.

28. Reestr ma'lumotlari asosida Ichki nazorat tuzilmasi har chorakda vazirlik, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari rahbariga qabul qilingan korrupsiyaviy xarakatlar to'g'risidagi xabarlarga taalluqli bo'lgan hisobotni taqdim etadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

kelib tushgan taalluqli xabarlar va ko'rib chiqilgan taalluqli xabarlar soni;

korrupsiyaviy xarakatlar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari tasdiqlangan taalluqli xabarlar soni;

ko'rib chiqish muddatlari buzilgan taalluqli xabarlar soni;

taalluqli xabarlarni ko'rib chiqishning o'rtacha muddati;

murojaatchilar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan aloqa kanallari va boshqa statistik ma'lumotlar.

6-bob. Yakuniy qoida

29. Mazkur Reglament talablarini buzish belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

30. Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlarilariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamentiga ilova

**O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, uning hududiy
bo'linmalari va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni ro'yxatga olish
REESTRI**